

TIJORAT BANKLARINING MOLIYA BOZORIDAGI VAZIFALARI

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Qahramanova Xusnora

ANNOTATSIYA: Tijorat Banklari Vositachi sifatida pul mablag'laridan foydalanganligi uchun foiz to'lash sharti bilan omonatlarni jalb qiladilar va ularni aholi va tadbirkorlarga kreditlar va investitsiyalar shaklida foiz evaziga taqdim etadilar. Tijorat banklarining asosiy maqsadi foyda olishdir. Banklar qanday qilib foyda olishini ko'rib chiqaylik., Moliya bozorida Tijorat banklarining bir qator operatsiyalari.

KALIT SO'ZLAR: Tijorat banki, Moliya Bozori, Kreditlar, Investitsiya, Markaziy Bank, Qimmatli Qog'ozlar Bozori, Viza, Mobile Banking, Konversiya, Valyuta operatsiyalari.

Tijorat banki – tijorat asosida bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalb qilish va kreditlarni taqdim etish, bank hisobvaraqlarini ochish va uni yuritish hamda to'lovlarini o'tkazish kabi amaliyotlarni amalga oshiruvchi kredit tashkilotidir. Tijorat banklari – bo'sh pulga (jamg'armaga) ega va pulga muhtoj bo'lganlar o'rtaqidagi vositachilardan biri hisoblanadi. Tijorat banklari iqtisodiyotning "qon tomir tizimi" bo'lib, aholi va biznesning to'planib qolgan jamg'armalarini taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Bu vositachilik iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan "yoqilg'i" bilan ta'minlaydigan omildir.

Barchamizga ma'lumki, har bir davlatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va nufuzi bevosita uning iqtisodiy va siyosiy kuchiga bog'liqdir. Mamlakat taraqqiyoti, uning rivojlanishi, butun dunyoda o'z so'zi va o'z qarashlariga ega bo'lishi ham aynan shu davlatning ham iqtisodiy ham ma'naviy kuchiga chambarchas bog'liqdir. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo'g'inini esa uning bank va moliya tizimi tashkil etadi. Banklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e'tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Binobarin, banklarning iqtisodiyotda tutgan roli ularning funksiyalari kabi ma'lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo'lgan, muhim operatsiyalarni bajaradi. Shu boisdan ham, banklar qanday mulkiy shaklda yoki ixtisoslikda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, ular iqtisodiyotda alohida va yetakchi ahamiyat kasb etadi. Albatta, banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati juda ko'pqirrali bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etadi;
2. Qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoji mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga qaytarishlik, to'lovlik, muddatlilik va ta'minlanganlik asosida mablag'lar beradi;
3. Milliy valyutaning emissiyasini tashkil etadi va uning barqarorligini ta'minlash doirasida pul – kredit siyosatini amalga oshiradi;
4. Pul aylanmasini tashkil etadi va uning tartibini belgilaydi;
5. Iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi sub'ektlar o'rtasida hisob – kitob va to'lovlarni amalga oshirishda vositchilik qiladi;
6. Bozor ishtirokchilariga turli darajadagi komission va maslahat xizmatlarini amalga oshiradi;
7. Aholiga va mijozlarga trast va depozitar xizmatlarini taklif etadi. Banklarning iqtisodiyotdagi rolining asosiy jihatlaridan biri, jamiyatdagi
8. Vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arish asosida ularni iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Barchamizga a'yонки, jamiyatda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarining asosiy maqsadi albatta , jamiyatdan iqtisodiy foyda olishga qaratilgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayoni turli tarmoqda turlicha bo'lganligi bois, ma'lum davrda ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish jarayonini rivojlanadirish uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoj tug'ilsa, ayrimlarida aksincha. Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish siklining turli – tumanligi (qishloq xo'jaligi, qayta ishlovchi korxonalar, qurilish sanoati va boshqalar) sababli, moliyaviy mablag'lar vaqtinchalik ishlab chiqarish jarayonidan chetlashtiriladi. Bu jarayonda bir tomonidan bir guruh iqtisodiyot tarmoqlarida qo'shimcha moliyaviy mablag'larga nisbatan qo'shimcha ehtiyojni keltirib chiqarsa, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mablag'larning ishlab chiqarishdan chetlashishini keltirib chiqaradi. Ana shunday jarayonda ikki tomonning iqtisodiy manfaatlarini birlashtiruvchi moliyaviy tashkilot sifatida banklar maydonga chiqadi. Birinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlarining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida jalb etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lган ikkinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlariga, ya'ni qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezgan xo'jalik subyektlariga qayta taqsimlab beradi

Iqtisodiyotni moliyalashtirishning ikkita asosiy usuli mavjud bo'lib, ular bank kreditlari yordamida moliyalashtirish hamda qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirishdir. Bank kreditlari yordamida moliyalashtirish kontinental Yevropada moliyalashtirishning asosiy usuli hisoblanadi. Bunda moliyaviy resurs jalb qilish maqsadida bankka murojaat qiladi. Bank kompaniya moliyaviy holatini tekshiradi, taqdim etgan loyihasi va uning samaradorligini ijobiy baholaganda boshqa shartlarning

ham bajarilishini inobatga olgan holda kredit ajratadi. Tegishli talablar bajarilmagan yoki taqdim etilgan loyihalar ijobiy baholanmagan holatlarda, shuningdek loyihalar yuqori riskli deb topilganda banklar moliyalashtirish bo'yicha arizaga rad javobini berishi mumkin. Bundan tashqari faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha bir necha kreditlarni moliyalashtirish murakkab jarayon ekanligini ham shu o'rinda qayd etib o'tish lozim. Bank stavkalari yuqoriligi, alohida bank tomonidan mustaqil ravishda yirik summada kredit berish imkoniyati pastligi bunday amaliyotning kamchiliklari hisoblanadi. Banklar tomonidan kreditlashning kamchiliklari o'z navbatida kompaniyalar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozori orqali mablag'lar jalb qilishni rivojlantirishga zaruratni yuzaga keltiradi.

Har qanday iqtisodiy faoliyat mablag', pul talab qiladi. Ishlab chiqarish qayerda bo'lmasin, baribir moliyani yuzaga keltiradi. Chunki makroiqtisodiyotning uchta asosiy yo'nalishi, ya'ni nima ishlab chiqarish kerak, qancha ishlab chiqarish kerak, ishlab chiqarish faoliyatida olingan natijalarni qanday taqsimlash kerakligini faqat moliya yordamida hal qilinishi mumkin. Bu masalani hal etishda siyosiy yoki ma'muriy tadbirlar yordamida amalga oshirilsa, gap buyruqbozlikka asoslangan yoki rejali iqtisodiyot haqida boradi. Moliya bozori milliy va xalqaro xo'jalik doirasida pul mablag'lari erkin harakatining maxsus shaklidir. Moliya bozori – juda keng tushunchadir. U keng ma'noli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qiladi, hamda muayy'an moliya muassalari orqali o'zaro ta'sirida bo'ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlaydi. Turli mamlakatlarda iqtisodiyot va moliya sohasi rivojiga ko'ra jahonda moliya bozorining bank va qimmatli qog'ozlar bozoriga asoslangan ikkita asosiy modeli shakllanganligi tilga olinadi. Bu modellar odatda insayderlik va autsayderlik modellari, nemis va ingлиз modellari sifatida ham tilga olinadi. Moliyaviy sxemalar va munosabatlardagi yaqqol farqlarning yuzaga kelganligidan kelib chiqqan holda moliya bozorining islam modeli ham keyingi paytlarda alohida qayd etilmoqda.

Bank modeli – bank tomonidan moliyalashtirishga asoslangan tizim bo'lib, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va boshqa dunyoning ko'plab mamlakatlarda keng qo'llaniladi. O'zbekistonda ham moliya bozori banklar tomonidan moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berilgan bo'lsada, ma'lum bir farqli jihatlar mavjudligini qayd etish lozim. Mazkur modelning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- tijorat banklari moliyaviy vositachilar (broker, diler, anderrayter) funksiyalarini bajaradi;
- kreditlash mexanizmlari orqali kompaniyalarni uzoq muddatli moliyalashtirish ustunlik qiladi;
- mulkchilikning yuqori ulushi guruhlar qo'lida jamlanadi. Bunda davlat va yirik korporativ tuzilmalar ulushi yuqori hisoblanadi;
- qimmatli qog'ozlarni qo'shimcha joylashtirish yopiq xarakterga ega;

- aksiyadorlik kapitali tarkibi nazorat paketi va vertikal ishtirok etishga asoslanadi;
- bir foizgacha kapitalga egalik qiluvchi mayda aksiyadorlar kamchilikni tashkil qiladi, shuningdek kollektiv investitsiyalash institutlari faoliyati mayda investorlar faoliyatida ahamiyat kasb etadi. Autsayderlik, anglo-amerika modeli kabi nomlar bilan ham ataluvchi nobank modeli – qimmatli qog'ozlar bozoriga yo'naltirilgan va institutsional investorlar (sug'urta kompaniyalari, investitsiya va pay fondlari) tizimidir. Mazkur modelning asosiy xususiyatlari quyidagilar:
 - qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy vositachilar funksiyalarini nobank moliyaviy institutlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha tashkilotlar (birjalar, vositachilik tashkilotlari va hokozolar) bajaradi;
 - banklar va ularning filiallari yoki vakolatxonalariga qimmatli qog'ozlar bozorida mijozlar uchun operatsiyalarni amalga oshirishlari ta'qiqlangan;
 - qimmatli qog'ozlar asosan ko'plab mayda mulkdorlar o'rtaida birja mexanizmlari orqali joylashtiriladi;
 - aksiyadorlik kapitali tarqoq bo'lib, mayda xususiy investorlar ulushi aksiyadorlik kapitalining 50 foizidan yuqorini tashkil etadi;
 - xususiy investorlar o'rtaida moliyaviy aktivlar savdosi uchun bozor sifatida fond birjalarning rivojlanganligi;
 - kompaniyalarni moliyalashtirishda qarz majburiyatlariga nisbatan aksiyalar bozorining ustunlikka egaligi.

24-noyabr 2023-yilda Xorijiy investorlar kengashi majlisida davlatimiz rahbari tomonidan yana bir muhim vazifa — samarali fond bozorini shakllantirish masalasi ko'tarildi. Aynan fond bozorini kuchaytirish istiqbolda tijorat banklari faoliyati rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit va fond bozorlari o'rtaida keskin raqobat yuzaga kelishi har ikkala sohaning raqobatda ustunlikka intilishi orqali rivojlanishni ta'minlaydi. Bundan esa milliy ishlab chiqaruvchi, kapital zarur bo'lган tomon arzon kapital jalb qilish imkoniga ega bo'ladi. Shu bois, iqtisodiyotni moliyalashtirish nuqtai nazaridan moliya bozorining birja modelini tanlagan mamlakatlarda bank tizimi ham yuqori darajada rivojlangan. Yoki aksincha, iqtisodiyotni bank vositasida moliyalashtiruvchi mamlakatlarda ham fond birjalari to'liq raqobatchi sifatida rivojlanganini ko'rish mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, bank tizimi va fond bozorini o'zaro uzviy holda rivojlantirish yaqin istiqbolda global raqobatbardoshlik o'sishi va iqtisodiy taraqqiyot jadallahshuvini ta'minlaydi. Bu jarayonda xorijiy investorlar faolligini oshirish esa samaradorlikni yanada yuksaltiradi. Bularidan ko'rinish turibdiki, moliya bozorida tijorat banklarining ahamiyati kattadir. Shuni xam ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozoriga xam aynan tijorat banklari asos soldilar.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati

1. Shernaev, A. A. (2021). Strategik rivojlanish sharoitida mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Студенческий вестник, (20-14),
2. Xamdamova, R. R. Q., & Shernayev, A. A. (2022). Xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarning rivojlanish istiqbollar. Science and Education, 3(1),
3. Jovmirov, A. R. O. G. L., & Shernayev, A. A. (2022). Jahon savdosini moliyalashtirishning zamonaviy yo'llari. Science and Education, 3(3), 1119-1127.
4. Amirqulov, B. R. O. G. L., & Shernayev, A. A. (2022). Davlat maqsadli fondlari moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlari
5. Finlit.uz Moliyaviy savodxonlik web-sahifasi